

TURKIYA RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATIDA MIGRATSIYA JARAYONINI TARTIBGA SOLISHDAGI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Raxmonaliyev Baxrom

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Turkiya Respublikasining tashqi siyosatida migratsiya jarayonlarini tartibga solishdagi strategik yondashuvlar va ularning geosiyosiy kontekstdagi ahamiyati o‘rganiladi. Migratsiyaning tashqi siyosat vositasiga aylanishi, ayniqsa Yaqin Sharqda yuzaga kelgan inqirozlar fonida yuzaga kelgan muammolar, Turkiya tomonidan ilgari surilgan institutsional mexanizmlar, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalar va bu siyosatning Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlardagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada migratsiya jarayonlari Turkiyaning ichki ijtimoiy dinamikasiga, tashqi siyosiy pozitsiyasiga va xalqaro imijiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiya tashqi siyosati, migratsiya, qochqinlar, Suriyalik muhojirlar, Yevropa Ittifoqi, insonparvarlik diplomatiyasi, migratsiya siyosati, geosiyosiy strategiya, migratsiyani boshqarish, Turkiya modeli.

Turkiya Respublikasi migratsiya siyosatining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat tarixida yuz bergan ichki va tashqi siyosiy o‘zgarishlar, mintaqaviy inqirozlar hamda xalqaro dinamikalar bilan uzviy bog‘liqdir. Migratsiya masalasi dastlabki yillarda ko‘proq ijtimoiy va iqtisodiy kontekstda ko‘rilgan bo‘lsa, XXI asrga kelib u geosiyosiy strategik vositaga aylana boshladi. Tarixiy jarayonlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Turkiya migratsiya bo‘yicha dastlab eksportchi davlat (ya’ni ishchi kuchi yuboruvchi) sifatida e’tirof etilgan. Ayniqsa, 1961-yilda Germaniya Federativ Respublikasi bilan imzolangan mehnat migratsiyasi bo‘yicha shartnoma doirasida yuz minglab turk fuqarolari Yevropa bozorida ishchi sifatida faoliyat boshlagan. Bu jarayon "Gastarbeiter" deb atalgan to‘lqin bilan Turkiyaning tashqi aloqalariga iqtisodiy tus bag‘ishladi.

Shu bilan birga, 1980-yillarga kelib Turkiya ichki siyosiy beqarorlik, harbiy to‘ntarishlar, kurd masalasi va terrorizm xavfi sababli nafaqat emigratsiya, balki ichki ko‘chish va noqonuniy migratsiya oqimlari bilan ham to‘qnashdi. Bu jarayonda davlat migratsiyaga nisbatan qat’iy xavfsizlik yondashuvini qabul qildi.

O‘sha davrda migratsiya ko‘proq xavf va tahdid sifatida talqin qilinar edi. Tashqi siyosatda esa migratsiya masalasi asosan ikkinchi darajadagi mavqe kasb etgan, chunki Turkiyaning tashqi siyosiy ustuvorliklari NATO doirasidagi harbiy hamkorlik, AQSh bilan aloqalar va Yaqin Sharqdagi muammolarga qaratilgan edi.

1990-yillarga kelib, Sovet Ittifoqining parchalanganidan so‘ng, Markaziy Osiyo va Kavkazdan kelgan ko‘chmanchilar soni ortdi. Shuningdek, Yugoslaviya parchalanishidan keyingi Bosniya va Kosovo inqirozlari natijasida Turkiyaga yana yangi muhojirlar oqimi yo‘l oldi. Biroq bu davrda ham migratsiyaga davlat darajasida strategik yondashuv mavjud emas edi. Muhojirlar asosan madaniy yaqinlik, diniy umumiylik va iqtisodiy intilishlar orqali jamiyatga moslashtirildilar. Turkiya hali o‘zining tashqi siyosatida migratsiyani geostrategik vosita sifatida joriy etmagan edi.

2002-yilda Adolat va taraqqiyot partiyasining (AKP) hokimiyatga kelishi Turkiyaning tashqi siyosat paradigmasida tub burilish yasadi. Davlat tashqi siyosatida “yumshoq kuch”, “mintaqaviy yetakchilik” va “insonparvarlik diplomatiyasi” kabi tushunchalarni ilgari surdi. Aynan shu yillardan boshlab migratsiya masalasi Turkiya tashqi siyosatining muhim elementi sifatida shakllandi. Migratsiya nafaqat xavfsizlikni ta‘minlash vositasi, balki mintaqadagi siyosiy ta‘sirni kengaytirish, Yevropa Ittifoqi bilan muzokaralardagi pozitsiyani mustahkamlash va global miqyosda humanitar yetakchilikni ko‘rsatish quroli sifatida qarala boshlandi.

AKP davrida tashqi siyosatda “Komshularla sifir sorun” (Qo‘shnilar bilan nol muammo) tamoyili ilgari surildi, biroq bu strategiya mintaqadagi murakkab siyosiy jarayonlar fonida barqaror ushlab turilmadi. Aynan Suriya inqirozidan keyin ushbu tamoyil o‘z kuchini yo‘qota boshladi, ammo migratsiya siyosati bir necha barobar ahamiyat kasb etdi. Bu bosqichdan boshlab Turkiya ilk marotaba migratsiyani tashqi siyosat vositasi sifatida anglab, uning ustidan institutsional va diplomatik nazoratni kuchaytirdi. 2011-yildan keyingi jarayonlar esa bu siyosatning amaliy sinov maydoniga aylandi.

Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lish jarayoni ham migratsiya siyosatida muhim o‘rin tutdi. 2005-yilda rasmiy muzokaralar boshlanganidan so‘ng, Turkiya o‘zining migratsiya qonunchiligini Yevropa standartlariga moslashtirishga kirishdi. Bu esa bir tomondan davlatga xalqaro hamjamiyatda ijobiy imij berayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan Turkiyaning ichki ijtimoiy va siyosiy tizimlarida murakkab

muvofiqlashtirish jarayonlarini vujudga keltirdi. Natijada, migratsiya masalasi strategik ustuvorlik darajasiga ko‘tarildi: u siyosiy vosita, xavfsizlik mexanizmi va xalqaro savdolashuv predmetiga aylandi.

Bundan tashqari, Turkiya bu inqirozni xalqaro siyosat maydoniga olib chiqdi va Yevropa Ittifoqi bilan muzokarlarda muhim pozitsiyani egalladi. 2016-yilda tuzilgan “Turkiya–Yevropa Ittifoqi kelishuvi” asosida Turkiya qochqinlarning Yevropaga oqimini to‘xtatish evaziga moliyaviy yordam va siyosiy imtiyozlarni qo‘lga kiritdi. Bu orqali Turkiya migratsiya muammosini tashqi siyosat vositasiga aylantirishga erishdi. Natijada, Anqara Yevropa bilan bo‘lgan muzokarlarda migratsiyani bosim vositasi sifatida foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bu esa migratsiya jarayonining geosiyosiy qurolga aylanganidan dalolat beradi. Turkiya migratsiya masalasini faqat ijtimoiy xavfsizlik yoki insonparvarlik kontekstida emas, balki xalqaro pozitsiyasini kuchaytirish vositasi sifatida baholamoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi bilan muzokarlarda qochqinlar oqimini nazorat qilish orqali Anqara siyosiy leveragega ega bo‘ldi. Bu strategik yondashuv Turkiyaning "yumshoq kuch" siyosatiga mos keladi: insonparvarlik yordami, ijtimoiy loyihalar va qochqinlar uchun yaratilgan infratuzilma orqali xalqaro hamjamiyatga ijobiy imij taqdim etilmoqda.

Turkiya tashqi siyosati va migratsiya

Yil	Turkiyadagi Suriyalik Qochqinlar (mln)	Yevropa Ittifoqi Yordami (mlrd €)
2011.0	0.2	0.0
2013.0	0.9	0.5
2016.0	2.7	3.0
2019.0	3.6	6.0
2022.0	3.7	9.0

Shuningdek, migratsiya orqali ichki siyosiy maqsadlar ham ko‘zda tutilmoqda. Ayrim hududlarda suriyalik qochqinlarning yashash joylari Suriyadagi etnik va siyosiy muvozanatga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, Turkiya tomonidan Suriyaning shimoliy qismida amalga oshirilgan harbiy amaliyotlar ortidan vujudga



kelgan "xavfsiz zonalar"ga qaytarilayotgan qochqinlar orqali Turkiya o'zining mintaqadagi ta'sir doirasini kengaytirishga intilmoqda.

Bu yondashuv ayni paytda Yevropa Ittifoqining migratsiya siyosatidagi bo'shliqlarini fosh etadi. Yevropa muhojirlar masalasida hamjihatlik namoyon etolmagan bir paytda, Turkiya nafaqat migratsiyani nazorat qilmoqda, balki mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasida yetakchi o'yinchiga aylanmoqda.

2011-yilda Suriya Arab Respublikasida boshlangan fuqarolik urushi zamonaviy tarixdagi eng yirik gumanitar inqirozlardan biriga aylandi. Bu inqiroz nafaqat Suriya jamiyatini va davlat tizimini butunlay izdan chiqardi, balki butun mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasini o'zgartirdi. Inqirozning bevosita ta'sirini his qilgan birinchi davlatlardan biri sifatida Turkiya Suriyalik qochqinlar oqimi bilan yuzlashdi. Qisqa muddat ichida Turkiya chegaralariga millionlab odamlar oqib kela boshladi va bu jarayon mamlakatning ichki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda tashqi siyosiy muhitini tubdan o'zgartirdi.

Suriyalik qochqinlar oqimi boshlanganda, Turkiya o'zining gumanitar pozitsiyasini namoyon etgan holda, ochiq eshik siyosatini qabul qildi. Bu yondashuvga ko'ra, har qanday suriyalik fuqarosi Turkiya chegarasidan hujjatsiz kirish imkoniga ega edi. Bunday siyosat Birlashgan Millatlar Tashkiloti, BMT Qochqinlar ishlari bo'yicha agentligi (UNHCR) va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ijobiy baholandi. Turkiya bu siyosati orqali xalqaro maydonda insonparvarlik yetakchisi sifatida ko'rilishni xohlagan edi. Qochqinlar dastlab maxsus lagerlarda joylashtirildi, biroq ular sonining keskin ortishi bu infratuzilmalarning yetishmovchiligiga olib keldi. Natijada, suriyaliklarning katta qismi shaharlarga tarqalib ketdi va urban migratsiya jarayoni boshlangan bo'ldi.

Qochqinlarga nisbatan rasmiy maqom masalasi ham Turkiya modeli uchun muhim o'ziga xoslikka ega. Turkiya 1951-yildagi BMT Qochqinlar maqomi to'g'risidagi Konvensiyani imzolagan bo'lsa-da, unga "geografik cheklov" qo'ygan: ya'ni faqat Yevropa davlatlaridan kelganlarga to'liq qochqin maqomini beradi. Shu sababli suriyaliklarga "muvaqqat himoya ostidagi shaxs" maqomi berildi. Bu maqom ularning qaytish huquqini ochiq qoldirib, to'laqonli integratsiya jarayonlarini sekinlashtirdi. Shu bilan birga, "mehmon" deb atalgan yondashuv, Turkiya hukumatining diniy, madaniy va tarixiy yaqinliklarga asoslangan yondashuvini aks ettiradi.



Turkiya modeli bu jihatdan klassik qochqin siyosatidan farq qiladi. G‘arb davlatlari asosan kvota va huquqiy maqom doirasida ishlovchi tizimni qo‘llasa, Turkiya “insonparvarlik diplomatiyasi” orqali keng miqyosdagi muhojirlarni qamrab olgan yondashuvni tanladi. 2014-yilda Migratsiyani boshqarish Boshqarmasining (DGMM) tashkil etilishi bu borada institutsional yondashuvning shakllanganidan dalolat beradi.

Shubhasiz, eng muhim geosiyosiy bosqich 2016-yilda yuz berdi. Aynan shu yilda Turkiya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida muhim kelishuvga erishildi. Bu kelishuvga ko‘ra, Turkiya Suriyalik muhojirlarning Yevropaga noqonuniy o‘tishini to‘xtatish evaziga 6 milliard yevro moliyaviy yordam, vizasiz rejim bo‘yicha muzokaralarning jonlantirilishi va G‘umruk ittifoqini kengaytirish kabi siyosiy imtiyozlar olishi kerak edi. Bu kelishuv orqali migratsiya ilk bor Turkiya tashqi siyosatida xalqaro savdolashuv ob‘ektiga aylantirildi. Yevropa davlatlari, ayniqsa Germaniya, bu siyosat orqali o‘z chegaralarini muhofaza qilish imkoniga ega bo‘ldi, Turkiya esa migratsiyani o‘z foydasiga yo‘naltira olish qudratini isbotladi. Shunga qaramay, bu jarayonlar bir qator muammolarni ham yuzaga chiqardi. Birinchidan, qochqinlar sonining ortishi ichki ijtimoiy keskinliklarni kuchaytirdi. Mahalliy aholi bilan raqobat, ijtimoiy xizmatlarga bosim, ishsizlik darajasining o‘shishi, uy-joy narxlarining oshishi kabi omillar norozilik kuchayishiga olib keldi. Natijada, muhojirlarga nisbatan salbiy kayfiyatlar kuchayib, siyosiy diskursda populistik va millatchilik ruhidagi ritorika ustunlik qila boshladi.

Ikkinchidan, Yevropa Ittifoqi tomonidan va‘da qilingan moliyaviy yordam to‘liq yoki o‘z vaqtida yetkazilmagan holatlar ham ko‘p kuzatildi. Bu esa Turkiya tomonidan Yevropaga nisbatan tanqidiy ritorika kuchayishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, 2020-yilda Gretsiya chegaralarida yuz bergan inqiroz chog‘ida Turkiya muhojirlar oqimini cheklamaslik bilan tahdid qildi. Bu holat Turkiyaning migratsiyani siyosiy bosim vositasi sifatida ochiq ishlata boshlaganini anglatdi.

Uchinchidan, suriyalik qochqinlar orqali Suriyada ta‘sir zonalarini tashkil qilish ham Turkiya tashqi siyosatining o‘ziga xos strategiyasi bo‘ldi. Harbiy amaliyotlar orqali Turkiya Suriyaning shimoliy qismida xavfsiz zonalar yaratdi va bu hududlarga qochqinlarni ko‘chirish harakatlarini boshladi. Bu esa Turkiyaning nafaqat mudofaa, balki demografik ta‘sir doirasi shakllantirishga urinayotganini ko‘rsatdi.





Migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun Turkiya so‘nggi yillarda bir qancha huquqiy va institutsional islohotlarni amalga oshirdi. 2013-yilda qabul qilingan “Chet elliklar va xalqaro himoya to‘g‘risidagi qonun” asosida Migratsiyani boshqarish Boshqarmasi (DGMM) tashkil etildi. Bu tuzilma migratsiyani nazorat qilish, qochqinlar bilan ishlash, deportatsiya jarayonlari, vaqtincha boshpana berish kabi masalalarda yetakchi organ hisoblanadi.

Boshqarmaning faoliyati BMT Qochqinlar ishlari bo‘yicha agentligi (UNHCR), Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) kabi xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Turkiya o‘z qonunchiligini Yevropa Ittifoqi standartlariga muvofiqlashtirishga intilmoqda, bu esa a‘zo bo‘lish yo‘lidagi muzokaralar kontekstida muhim qadamdir.

Huquqiy baza migratsiyani faqat xavfsizlik doirasida emas, balki inson huquqlari asosida tartibga solish imkonini bermoqda. Ammo amaliyotda huquqiy hujjatlar ko‘pincha siyosiy vaziyatga qarab talqin qilinadi. Shu sababli migratsiya siyosatining izchilligi va barqarorligi muammoligicha qolmoqda. Turkiyaning migratsiya siyosati xalqaro darajada tahsinga sazovor bo‘lsa-da, bir qancha tanqidiy jihatlar mavjud. Avvalo, qochqinlarning ijtimoiy integratsiyasi jarayoni sust kechmoqda. Qochqinlar jamiyatga to‘liq qo‘shila olmasdan, noformal mehnat bozori va ijtimoiy xizmatlardan chetda qolmoqda. Bu esa ichki ijtimoiy



qarama-qarshiliklar, millatchilik kayfiyatlarining kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, migratsiyaning tashqi siyosiy vosita sifatida foydalanilishi inson huquqlarining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Qochqinlarning xalqaro muhofazaga bo‘lgan huquqlari siyosiy manfaatlar yo‘lida poymol bo‘lishi xavfi mavjud. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqi tomonidan va‘da qilingan moliyaviy yordamlarning o‘z vaqtida berilmasligi Turkiyaning bu siyosatga bo‘lgan ishonchini susaytirgan.

Yana bir muhim jihat shundaki, migratsiya siyosatining haddan tashqari tashqi siyosiy lashtirilishi Turkiya ichidagi ijtimoiy muvozanatga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Aholi orasida qochqinlarga qarshi norozilik kuchaymoqda, bu esa populistik kayfiyatlarni kuchaytiradi va siyosiy maydonda migratsiyani ichki siyosiy kurash vositasiga aylantiradi.


Turkiya Respublikasining tashqi siyosatida migratsiya masalasi strategik, geosiyosiy va insonparvarlik jihatlarining murakkab uyg‘unligida namoyon bo‘lmoqda. Migratsiya nafaqat xavfsizlikni ta‘minlash, balki diplomatik pozitsiyani kuchaytirish, mintaqaviy yetakchilikni amalga oshirish va xalqaro moliyaviy ko‘mak olishda ham samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ammo bu siyosatning uzoq muddatli barqarorligi, xalqaro huquqiy majburiyatlarga sodiqlik va ichki ijtimoiy barqarorlikka ta‘siri ehtiyotkorlik bilan tahlil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. İçduygu, A. Turkey’s migration diplomacy and refugee regime // *Migration Studies*. – 2020. – Vol. 8, No. 4. – P. 543–565.
2. Kirişci, K. *The Rise and Fall of Turkey’s Soft Power* // Brookings Institution. – Washington, D.C., 2014. – 22 p.
3. European Commission. *EU-Turkey Statement: Two Years On*. – Brussels: European Union, 2018. – URL: https://ec.europa.eu/home-affairs/news/eu-turkey-statement-two-years_en (sana: 04.04.2025).
4. Republic of Turkey, Directorate General of Migration Management (DGMM). *Migration Statistics and Legal Framework*. – Ankara: DGMM, 2022. – URL: <https://www.goc.gov.tr> (sana: 04.04.2025).
5. Özerdem, A. Post-conflict Reconstruction in Turkey’s Foreign Policy // *Journal of Peacebuilding & Development*. – 2017. – Vol. 12, No. 2. – P. 78–94.



6. Yıldız, A., Sert, D. A. Rethinking migration governance in Turkey: Europeanization and beyond // Turkish Studies. – 2019. – Vol. 20, No. 4. – P. 561–580.
7. İçduygu, A., Millet, E. Syrian refugees in Turkey: Towards integration policies // Turkish Policy Quarterly. – 2016. – Vol. 15, No. 3. – P. 91–101.
8. United Nations High Commissioner for Refugees (UNHCR). Syria Regional Refugee Response: Turkey. – Geneva: UNHCR, 2023. – URL: <https://data.unhcr.org> (sana: 04.04.2025).



Research Science and
Innovation House

